

## AKADEMIK MIRZIYOD MIRSAIDOV ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTIDA UCHRASHUV O'TKAZDI.

Bu uchrashuvda iqtidorli bakalavriat talabalar, magistrler, doktorantlar, institutning ilmiy ishlar buyicha prorektori t.f.n., dos. B.Mamajonov fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, institutning yetakchi professor va dotsentlari qatnashdilar. Bu uchrashuvda TIQXMMI professori T.Mavlonov, Toshkent axborot texnologiyalar universitetining Andijon filiali professori, i.f.d., A. Abdullaev, Andijon mashinasozlik instituti "Oliy matematika" kaf. dotsenti, f.-m.f.n.- T.Jalilova, Andijon qishloq xo'jalik instituti dotsenti, f.-m.f.n., dos. K.Atabaevlar ham qatnashdilar.

Bu institutda uchrashuvni iqtidorli talabalar tomonidan yaratilgan innovatsion yangiliklar, ya'ni yangi jihoz, uskuna va har xil asboblar bilan tanishishdan boshladik. Institutning ilmiy ishlar bo'yicha prorektori B.Mamajonov va ixtirochi yoshlari o'zlarini yaratgan bu yangiliklarni bizga ko'rsatib, bu yaratilgan yangiliklar haqida g'urur bilan gapirib berishdi. Yangiliklar bilan tanishganimizdan so'ng institutning ilmiy ishlar bo'yicha prorektori B.Mamajonov institutda tashkil qilingan laboratoriyalarni biri bilan, ya'ni, fizika fani bo'yicha tashkil qilingan laboratoriya taklif qildi.

Uchrashuvni institut prorektori B.Mamajonov kirish so'zi bilan ochib, akademik M.Mirsaidovga so'z berdi. M.Mirsaidov o'z so'zida yurtboshimizning fanda erishilgan yutuqlarning amaliyotga tadbiq qilinishiga katta e'tibor berayotganliklarini, yuqori natijalarga erishgan ilmiy xodimlar albatta kelgusida taqdirlanishini, hozirgi kunda Prezidentimiz to'monidan to'la imkoniyat yaratilayotganligini aytib o'tdi. Hurmatli Prezidentimiz ilmdagi eng katta ilmiy natijalarni ilmiy tadqiqot va oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan yoshlardan kutayotganligini va bu bajarilayotgan ilmiy ishlar, innovatsiya g'oyalari, yangi texnologiyalar va ularning tadbig'i bilan yakunlanishi haqida ham M.Mirsaidov gapirib o'tdi.

Shu bilan birga M.Mirsaidov o'z so'zida ilmda yuqori natijalarga erishish uchun yoshlarimiz tinmasdan mehnat qilib, yaxshi o'qishlari va har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lismish uchun esa chet tillarini yaxshi bilishi va kitoblarni ko'p o'qishga harakat qilishlari kerak deb ta'kidladi. M.Mirsaidov Fanlar akademiyasi institutlarining qayta tiklanishi, Fanlar akademiyasi va saylov nizomlari o'zgartirilib, demokratlashtirilganligi va bu galidagi akademikkayta tiklanishi, Fanlar akademiyasining o'simliklar kimyosi institutidagi uchrashuvlari to'la tasdiqlashini aytib o'tdi.

Yoshlarimiz ham mukammal bilimlar olib, ishlab chiqarishda va ilm dargohlarida astoydil mehnat qilsalar kelgusida bundan ham ulug' natijalarga erishish imkoniyatlari mavjudligi haqida gapirib, bugungi kunda ilmiy xodimlarga Davlatimiz tomonidan bo'layotgan e'tiborni, Prezidentimizning 5-aprel 2018 yildagi maoshlarni oshirish to'g'risidagi qarori va Fanlar akademiyasining o'simliklar kimyosi institutidagi uchrashuvlari to'la tasdiqlashini aytib o'tdi.

Hozirgi kunda bu institutda davlatimiz tomonidan qo'yilayotgan dolzarb muammolarni yechish uchun yetarli sharoit borligini, ya'ni biz hozirgina ko'rgan yoshlar tomonidan bajargan ilmiy ishlanmalar va institut laboratoriyaning jihozlanganligi ko'rsatib turipti deb ta'kidladi M.Mirsaidov. Yoshlar va universitet xodimlari M.Mirsaidovga ko'p savollar berdilar. Bu savollarning asosiy mazmuni quydagilardan iborat bo'ldi:

Oxirgi davrlarda mexanika va fizika fanida qanday yutuqlarga erishildi, bizning fiziklarimizning qilingan ilmiy ishlari jahonda tan olinganmi, sizning ilmiy ishingizning mohiyati nimadan iborat, ilmiy ishlarining fizika va matematika fanlari bilan qanday bog'langan joylari bor, O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qerda quriladi, shu stansiyani bizda qurish shartmi, energiya olish uchun shamoldan foydalansak bo'lmaydimi, avtomobilarni quyosh energiyasidan foydalanib yurg'izish uchun O'zbekistonda ilmiy ishlar bajarilayaptimi, kelgusida chet ellarga borib o'z bilimimizni chuqurlashtirishimiz uchun nima qilishimiz kerak, suv tanqisligi muammosi bizning davlatimizda yechilishi uchun qanday ishlar olib borilayapti degan va boshqa fanning bir qancha sohalariga tegishli savolarni berdilar.

Sizni Prezidentimiz akademik qilib sayladi, siz bu yutuqlarga qanday erishganligingiz haqida gapirib bersangiz degan va boshqa bir qancha shunga o'xshash savollar ham berildi. Berilgan barcha savollarga M.Mirsaidov to'liq javob qaytarishga harakat qildi. Institut xodimlari va iqtidorli yoshlari ilm-fanga katta e'tibor qaratayotganligi uchun Prezidentimizga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar. Xayrlashuv oldidan esdalik uchun uchrashuvda qatnashgan barcha yoshlar va institut xodimlari bilan rasmga tushildi.

